



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI

Yerejepova Venera Asenbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Doktoranti

Annotatsiya: XXI asr intellektual salohiyatini yuksaltirish va shaxsni shakllantirish asri bulib, respublikada kadrlar tayyorlashning maqsadli tizimini rivojlantirish, jamiyat va davlatning malakali va raqobatbardosh mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirishni kuzda tutadi. Ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda ta'lim texnologiyasining innovasion modelning roli beqiyosdir. Ushbu maqola matematika darslarida innovasion modelni yulga qoyishning shart-sharoitlarini muhokama etadi.

Kalit so'zlar: Rivojlanayotgan ta'lim, faktlar, ongni oshirish, fikrlash qobiliyati, o'qitish usullari.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. O'rta maktab matematk. dasturiga taalluqli ko'pgina masalalar boshlang'ich sinflardayoq shu darajada mustahkam o'zlashtirilishi kerakki, bunda ular o'quvchilar ongida butun umr saqlanib qolsin, boshqa masalalar esa o'qitishning dastlabki bosqichida keyingi sinflarda mufassal qarab chiqishga tayyorgarlik ko'rish maqsadidagina kiritiladi yoki biror malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida fikrlash qobiliyati darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun kiritiladi. Maktabning boshlang'ich sinflarida bolalar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar, uquvlar va ko'nikmalarning ma'lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari haqida gap borganda yuqorida aytib o'tilgan mulohazalarni hisobga olish kerak. Boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash (ko'pincha avtomatizmga yetkazilgan) malakalarini shakllantirish edi va shunday bo'lib qoladi. Matematika kursi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materialini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy prinsip va qonuniyatlarni tushunishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushunishni nazarda tutadi. Bu, asosan, amallarning xossalarini, ular orasidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga, bolalarda shakllanayotgan amaliy uquv va ko'nikmalarning asosi bo'lgan



matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taalluqlidir. Nazariya amaliy uquv va ko'nikmalarni egallashga yordam beribgina qolmay, nazariya va amaliyotning qarab chiqilayotgan masalalari orasida matematik munosabatlarni o'rnatishga, matematika o'qitish samaradorligini oshirishga o'qituvchiga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir. O'quvchilarga egallangan bilim, uquv va malakalarini turli xil sharoitlarda qo'llanishga o'rgatishni o'qitishning maxsus masalasi sifatida qarash kerak. Bolalarning maktabda boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o'tishida albatta vujudga keladigan qiyinchiliklar ko'p darajada aynan ana shu asosda bartaraf etilishi mumkin. Va aksincha, agar o'qituvchi har tomonlama bilimlarga maxsus e'tibor bermasa va bolalarni bir xil turdagi savollarga, topshiriklarga, ifodalarga, masalalarga o'rgatib qo'ysa, bu 5- sinfdan fanlar bo'yicha o'qitishga o'tishdagi murakkablikni yanada orttiradi.

By masala bolalar bilim qobiliyatlarini o'stirishning ancha umumiy masalasi bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich maktabdayoq bolalarda kuzatish va taqqoslash, solishtirilayotgan hodisalardagi o'xshashlik va farq qiladigan belgilarni ajratish, tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash, aniqlashtirish kabi amallarni bajarish uchun ko'p ish qilingan bo'lishi kerak. Bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir. Bu boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Rivojlanayotgan ta'lim haqida gapirganda ish faqat bilish qobiliyatlarini (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur. nutq) rivojlantirishdangina iborat. deb o'ylash xato fikrdir. Matematika bilan shug'ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, balki bolalarning mehnat tarbiyasi maktabi ham bo'ladi.

Darsdagi ongni oshirishga oid vazifalar bolalarning aqliy va bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. To'rt yillik maktabning yangi darsliklarida o'quvchilarning diqqatini, kuzatuvchanligini, xotirasini rivojlantirishga, ob'ektlarni tahlil qilish, taqqoslash, yashirin qonuniyatni fahmlashga qaratilgan mashqlar soni ko'paytirilgan. Darslarda bolalarning matematikaga qiziqishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Dars qiziqarli bo'lsa, bolalar faol qatnashadilar va mustaqil bo'ladilar. Bolalarning aqliy qobiliyatlarini va matematikaga qiziqishlarini rivojlantirishda o'qitish usullarining to'g'ri tanlanishi katta ahamiyatga ega. O'qituvchi darsda foydalanadigan usullarni misolda batafsilroq ko'rib chiqamiz. Mavzu: $68 : 4$ ko'rinishidagi bo'lishni tushuntirish. Bu jadvaldan tashqari bo'lish holidir. Nazariyasi: $68 : 4 = (40 + 28) : 4 = 40 : 4 + 28 : 4 = 10 + 7 = 17$.

Tushuntirish: I v a r i a n t. 68 ni 4 ga bo'lish uchun 68 sonini har biri 4 ga oson bo'linadigan qo'shiluvchilarning yig'indisi bilan almashtirish foydali, keyin esa



yig'indini songa bo'lishning ma'lum qoidasidan foydalanish mumkin. Hisoblashlarni osonlashtirish uchun bu holda 68 ni eng yaxshisi $40 + 28$ yig'indi ko'rinishida ifodalash kerak. Haqiqatan ham, $40 : 4 = 10$, $28 : 4 = 7$ (siz buni ko'paytirish jadvalidan bilasiz). Endi qanday mulohazalar yuritganimizni yozamiz:

$$68 : 4 = (40 + 28) : 4 = 40 : 4 + 28 : 4 = 10 + 7 = 17 \dots \quad \text{O'qituvchi}$$

tushuntirganidan so'ng, odatda shu misolning o'zini takrorlashni so'raydi, keyin mustahkamlanadi.

I v a r i a n t. Siz ikki xonali sonni bir xonali songa bo'lishning bo'linuvchi xona qo'shiluvchilarining har biri bo'luvchiga bo'linadigan hollari bilan tanishgansiz: $46 : 2 = (40 + 6) : 2 = \dots$. Bunda biz nima qilar edik: sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi bilan almashtirardik, keyin yig'indini songa bo'lar edik. Endi qiyinroq misolni ko'raylik: $42 : 3$. Bizga ma'lum bo'lgan $(40 + 2) : 3$ usuli ish bermaydi. 42 soni 3 ga umuman bo'linmasligi ham mumkin, hozircha shoshilmaylik. Cho'plarga murojaat qilamiz. 42 — bu 4 ta o'nlik dasta va 2 ta alohida cho'p. 3 ga bo'linadigan o'nliklar dastasini ajrating. Bizda 12 ta cho'p qoldi, 3 ga bo'linadi, 4 chiqadi. Demak, 42 ni 3 ga bo'lish mumkin. Yuqoridagi mulohazalarimizni takrorlaymiz va yozamiz:

$$42 : 3 = (30 + 12) : 3 = 30 : 3 + 12 : 3 = 10 + 4 = 14.$$

III v a r i a n t. Ikkinchi holdagi kabi xona qo'shiluvchilari yig'indisi bilan almashtirish hech narsa bermasligidan boshlaymiz. 42 ni 3 ga bo'linadigan boshqa qo'shiluvchilar yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin bo'lmasmikan? Shunga urinib ko'ramiz. 3 ga ko'paytirish jadvaldan $3 \times 5 = 15$ ni olamiz, u holda ikkinchi qo'shiluvchi $42 - 15 = 27$ bo'ladi, u ham 3 ga bo'linadi, demak, $(15 + 27) : 3 = \dots$. Boshqa sonlarni ham sinab ko'rish mumkin:

$3 \times 4, 3 \times 6, 3 \times 8, 3 \times 10$. Bu barcha hollardan eng qulayini, ya'ni eng soddasini tanlab olamiz:

$$3 \times 10 = 30, 42 - 30 = 12. \text{ Shunday qilib, } 42 : 3 = (30 + 12) : 3 = 10 + 4 = 14$$

Bu tushuntirish variantlarini taqqoslaymiz:

- 1) dogmatik usul.
- 2) evristik usul.
- 3) tadqiqot usuli (muammoli usul).

Boshlang'ich sinflarda hozirgi zamon matematik darsining asosiy xususiyatlaridan biri, uning maqsadi, ko'p rejaliligidir. Ayni bir darsda o'qituvchi odatda, birorta aniq masalanigina hal qilib qolmay, balki bir qator masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Bu yerda gap tabiiyki, bu usullarni birga qo'shib olib borish haqida boradi. Bunda turli hollar uchrashi mumkin. Dars materiali bilish



faoliyati xarakteri bo'yicha turli o'qitish usullaridan foydalanishni talab qilishi mumkin. Masalan, yig'indini songa ko'paytirish qoidasi kiritiladigan dars haqida gap borayotgan bo'lsin. Bu darsda, tabiiyki, dastlab o'quvchilar xotirasida jadvalda ko'paytirishning turli usullarini, sonni yig'indi ko'rinishida ifodalash ko'nikmasini tiklash lozim. Bu aniq vazifa faoliyatning reproduktiv shakllari bilan bog'liq. Yangi masalani qarab chiqish uchun o'quvchilar faoliyatining qisman izlanuvchan, ya'ni samarali shakli tashkil etilishi mumkin. Shu darsning o'zida o'rganilayotgan masala bilan bog'liq matnli masalalarni hal qilish ham ko'zda tutilishi mumkin. Bu ish ham reproduktiv, ham samarali faoliyatni talab qiladi. Darsda yechiladigan aniq masalalarning bunchalik xilma-xilligi tufayli o'qituvchining tegishli usullarni tanlashi oson va ularning shunday birlashishini ta'minlash mumkinki, bunda o'quv faoliyatini tashkil etish shaklining zarur turliligi, o'qitishning turli vositalaridan foydalanish ta'minlangan bo'ladi. Butun dars reproduktiv faoliyatdan foydalanish zarurligi bilan bog'liq bo'lgan holda, u mazmuni bo'yicha turlicha o'quv materiali asosida qurilgan bo'lsa-da, ish ancha qiyin bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgandek, bu holda usullar soni bir oz cheklangan va o'qitish jarayonining samaradorligini oshyrishning bosh vazifasi o'quvchilarning darsda zarur har xillikni ta'minlovchi ishlarining turlarini tanlashdan iborat bo'ladi. Tashkiliy shakllarning xilma-xilligi nazarda tutiladi: o'yin elementlaridan foydalanish, o'quvchilarning yozma ishlari, matematik diktant, og'zaki suhbat o'tkazish, o'quvchilar bilan frontal, guruh bo'lib va yakkama-yakka ishlarni qo'shib o'tkazish. Suhbat, diktantlar, o'yinlar o'tkazish da teskari bog'lanishni amalga oshirishning turli usullaridan muvaffaqiyatli foydalaniladi, ular o'qituvchiga hamma o'quvchilar topshiriqni uddalay olish-olmasliklarini darhol ko'rishga imkon beradi (signal kartochkalar, raqamli kartochkalar va bosh qalar). Xilma-xillik faqat tash killashtirish uchungina taalluqli bo'lmasdan, balki o'quvchilarning ishi mazmuniga ham tegishli bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi darsda turli mashqlarni tanlash va joylashish sistemasini ayniqsa sinchkovlik bilan tanlashi kerak. Bu holda darsliklarning darslar bo'yicha tuzilishi o'qituvchiga katta yordam beradi, shu tufayli darslikning o'zida dars uchun shunday material tanlanadiki, unda turli xil o'qitish usullaridan foydalanishga imkoniyatlar ochiladi. Misol uchun quyidagi darsni qarab chiqamiz, uning yangi materiali ko'paytirishning komponentlari va natijasining nomi, eski materiali tenglama yechish malakasini mustahkamlash, o'lchovlar bilan shakl almashtirishlar bajarish, matnli masalalar yechish va hokazo.



ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Tojiev, M., Barakaev, M., Xurramov, A., Matematika o'qitish metodikasi // O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 328 b.
2. Tojiev, M., Xurramov, A. J., Oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish – ta'lim sifatining kafolati. Volume: 1, ISSUE: 1, 2020.pp: 71-79.
3. Umarova U.U. “Munosabatlar. Binar munosabatlar” mavzusi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari uchun “Ajurli arra” va “Domino” metodlar // Scientific progress, 2:6 (2021), r. 982-988.
4. Umarova U.U. Mulohazalar ustida mantiqiy amallar mavzusini o'qitishda «Kichik guruhlarda ishlash» metodi // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 803-809.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2019.
6. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2015.
7. Sherqulov. M . Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2019.
8. www.ziyonet.uz
9. www.natlib.uz